



YOSHLARNI OILAVIY XAYOTGA TAYYORLASHDA IJTIMOIIY ODOBLARNING O'RNI

TerDPI Amaliy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Axmedov Baxtiyor Tursunovich

Psixologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Abduraxmonov Abduravitxon

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi davrning muhim muammolaridan bo'lgan odob va uni har bir hayot davriga aloqa vositalariga tadbiq etish masalasi bo'yicha dalillangan.

Tayanch so'z va iboralar. Biologik, jismoniy, ruhiy, psixologik, ruhiy tarbiya, ijtimoiy odoblar, axloq.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос этикета, одна из важнейших проблем современности, и его применение к средствам коммуникации на всех этапах жизни.

Ключевые слова и фразы. Биологическое, физическое, психическое, психологическое, духовное воспитание, социальные нормы поведения, этика.

Jamiyatimizda odamlarning baxtli yashashi, oilalar mustahkamligini ta'minlash borasida juda katta va keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, «Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!», — deya ta'kidlagan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoev.

Darxaqiqat, o'rta osiyo azal-azaldan buyuk tarixi va boy madaniy hayoti bilan insoniyat tamaddunida o'chmas iz qoldirgan. Buni usha davr olimlari ham hozirgi davr insonlari ham Sharq madaniyati sifatida etirof etadilar. Albatta ushbu jarayonlarda din va qadimiy odatlariizning o'rni beqiyosdir.



Dunyoga mashhur hujjatulislom laqabini olgan zot Imom Abuhomid G‘azzoliy hazratlarining “Ehyou-ulumiddin” asarlaridan ilhom olib G‘arb madaniyatshunos, axloqshunos olimlari ko‘plab asarlarni ta’rif qildilar. Albatta bu kabi dalillar juda ko‘p va ularning negizida esa mo‘tadillik, axloq va odob xususiyatlari mujassam. Dastlab odob so‘zining lug‘aviy mazmuni bilan tanishib olsak: Odob arab tilidagi “adab” so‘zidan olingan bo‘lib yaxshilikga chaqirish manosini bildiradi, u “ma’daba” o‘zagidan olingan. Ma’daba esa odamlarni yaxshilikka, a’naviy ziyofatga chaqirishni anglatadi. Xususan yaxshilik: “kiyinish odobi”, “ovqatlanish odobi”, “kalom odobi” kabilardir. Barcha odoblar kabi ijtimoiy odoblarning ajralmas qismi bo‘lmish er-xotinlik odobi, kelin-kuyovlik odoblari ham boshqa din va madaniyatlardan farqli ravishda juda go‘zal yo‘lga qo‘yilgan. Xususan nikohga targ‘ib, nikohlanish jarayonlari mustahkam ijtimoiy aloqa bo‘lishi bilan birga ruhiy va ma’naviy bog‘lanish hamdir.

Aytishlaricha, qadimda ibodatga berilgan solih bir zot o‘tgan ekan. O‘sha zamon payg‘ambariga bu zotning ibodatlari va yaxshi insonligi aytiladi. Allohning payg‘ambari ul zot haqida shunday dedilar: - U qanday yaxshi odamdir. Koshki, sunnat bo‘lgan bir narsani ham tark etgan bo‘lmasa.

Obid kishi bu so‘zlarni eshitgach, qayg‘urdilar va bu bilan Allohning payg‘ambari nimani qasd qilganlarini so‘radilar.

- Sen nikohni tark etgan kishisan, - dedilar Allohning payg‘ambari.

- Men atayin o‘zimni nikoh sunnatidan mahrum etmoqdaman. Chunki men faqir kishiman va zotan odamlarga yuk bo‘laman,

- dedilar obid kishi. Shundan keyin o‘sha payg‘ambar dedilar:

- Senga qizimni beraman. Va qizini u zotga nikohlab qo‘ydilar. Albatta nikoh muqaddas, uning foydalari haqida esa Imom G‘azzoliy quydagilarni aytadilar:

Nikohda besh turli foyda bor:

Farzandli bo‘lmoq, Shahvatdan tiyilish, Uy ishlarining boshqarilishi, Sulola ko‘payishi, Nafs bilan kurashish.



Oila qurish bo'sag'asidagi yoshlar mana shu jismiy va ruhiy obodlikning haqiqatini bilsalar bu tayyorgarlikning eng muhim omili bo'ladi nazarimizda.

Oila psixologiyasining asosiy o'rganish ob'ekti bo'lgan oila, unga tayyorgarlik bosqichlari va boshqa shunga o'xshash xodisalar shuningdek, olimu-tadqiqotchilar izlanishiga sabab bo'layotgan hamjihatlikni ta'minlash masalalari diniy ta'limotlarimizda mustahkam qilib ko'rsatib qo'yilgan. Xususan, yoshlarning biologik va ruhiy tayyorgarligi shular jumlasidandir.

➤ Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning biologik va psixologik jihatlari asosiy o'rinda turishi barchaga ma'lum. Masalaning asosiy jihatlari va ularga mos yechimlar haqida:

➤ Har bir o'sib kelayotgan yoshning biologik ya'ni jismoniy holati ma'lum me'yorga yetmog'i lozim. Ulg'ayishning vaqtida bo'lishi va oila qurish jarayonining unga mos borishining yaxshi natija berishi:

➤ Ruhiy tayyorgarlik: psixologik jihatdan tayyor bo'lish, jismoniy faoliyatning oila ma'naviy hayotida katta ahamiyatga ega ekanligi:

➤ Tashqi aloqalar ta'sirlarning mo'tadilligi: ota-ona ijtimoiy sharoit, hayot faoliyatining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi; bular qurilajak oila va oila quruvchilar uchun tayanch, ishonch manbayi va moddiy iqtisodiy resurslarning borligi bilan o'lchanadi.

➤ Urf-odat qonun qoidalar doirasida tashkiliy ishlarni olib borish albatta bu faqat oila qurish jarayonida emas, balki undan oldingi davrda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy odoblarning "yoshlar odobi" deb nomlangan qismi ham ayni shunday kommunikativ aloqalarni mo'tadillashtirishni maqsad qiladi.

➤ Shaxsiyat va dunyoqarash: bularni yana bir bora alohida aytishga sabab bor, inson ong egasi, ammo uning nafsi, axloqi, aql bilan ish qilishga doim ham harakat qilavermaydi. Binobarin bu masalalar o'z shaxsini tanish hamda oila qurish uchun katta ahamiyatga ega.



➤ Ruhiy tayyorgarlikning normada bo'lishi ham katta ahamiyatga ega zero, bu ko'p jihatdan ikki yoshing faol aloqasi mehr-muhabbatini va bir-birini tushunishini ta'minlaydi.

Bu borada Islom dinining go'zal o'gitlari Qur'oni Karim oyatlari, Payg'ambarimizning hadislar va shariat ahkomlari, ulamolarining tutgan yo'llari dunyoga tatigulik dars va ma'naviy ozuqa bo'la oladi. Jumladan, buyuk shoir va faylasuf Mavlono Jaloliddin Rumiy hazratlari ushbu biz aytayotgan psixologik tayyorgarlikka ancha chuqur va sayqallangan fikrlarni aytganlar; xususan ruh va tana orasidagi muvozanat Rumiy fikrlarining asosiy g'oyasidir. Qaysi holatda yoshlar oilaga eng tayyor darajaga yeta oladilar? Bu muvozanatga yetish va turli ijtimoiy axloqlar tas'sirida shakl berishning omili nima ekanligini u zotning o'zlaridan so'raymiz: "Agar danakni chaqib, mag'zini eksang, unmaydi, qobig'i bilan birga tuproqqa qadasangiz, unish hodisasi yuz beradi". Danak mag'zini ruh va qobiqni jism misolida olsak, demak inson bu dunyodagi barcha maqsadlarga erishishda ushbu ikki narsaga (xulq va xalqqa suyansin) binobarin oila qurish bobida ham bu o'gitlar katta foyda beradi.

Qonuniy me'yorlar va urf-odatlarga amal qilish ham juda muhimdir. Muomala, taom, kalom, mehmondorchilik, ilm olish, umumiy qilib aytganda barchasi yoshlikda egallanib, oilaviy xayotga tayyor holatni ta'minlovchi omillar sifatida xizmat qilishi barchamizga ma'lum. Ularni qonuniy doiraga solish esa, insonning nafsi ruhi beqarorligidan, xato qilishga moilligidan kelib chiqib, fikrlab qilingan va bularga amal qilish insoniy burch va fazilatlardandir.

Bizning mintalitetrimizda yaxshi va yomon go'zallik va badxulqlik ochiq oydin bayon etilgan. Bu borada yurtdoshimiz Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning asarlari katta va samarali urinish bo'lgan. Xususan, "Halol ochiq oydir harom ochiq oydir", oila qurish bobida mukammal asarlardan bo'lgan "Baxtiyor oila", "Ruhiy tarbiya" va yana ko'plab asarlar bugungi kun har bir kitobxonni alalxusus bo'lajak kelin va kuyovlarni katta ma'naviy ozuqa va islohot bilan baxramand qilish usullaridan biridir.



Yuqorida shaxsiyat va dunyoqarashga alohida to'xtalganimiz sababi bu inson xilqatining botiniy go'zalligi oila farovonligi va tinchlik maskaniga aylanishinig asosiy omilidir. Zero Nabiy s.a.v "Sizlarning eng yaxshingiz husni xulqligingizdir" deb bejiz marhamat qilmadilar.

Bir so'z bilan aytganda axloq va ruh tarbiyasi jismni chiniqtirish va mo'tadil tutish barcha ishlar kabi oilaga tayyorgarlik ko'rishda ham eng samarali usuldir. Bilgan amal qilishi bilmagan so'rab o'rganib amal qilishi yaxshidir, axir bu ummatning, xalq va millatning boshqalardan yuqori jihati eshitib, bilib, amal qilishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Imom G'azzoliy. Uylanish odobi. "Toshkent islom universiteti", T.: 2009.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. T.: "Hilol", 2012.
3. Axmedov, B. T. (2023). SEVGI-MUHABBAT MUNOSABATLARIDA ATTRAQIYaNING TUTGAN O'RNI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 75-79.
4. Akhmedov, B. T. (2021). The Family as the Basic Unit of Society. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(12), 201-204.
5. Akhmedov, B. (2022). Psychological characteristics of feelings of love.